


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

2025-yil 1- noyabr holatiga ko'ra

- I. Korxonalar va tashkilotlarning soni
- II. Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ma'lumotlar
- III. Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar
- IV. Korxonalar va tashkilotlar demografiyasiga oid metama'lumotlar va tushunchalar

I. Korxonalar va tashkilotlarning soni

2025- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (dehqon va fermer xo'jaliklari bundan mustasno) 28,5 mingtani tashkil etadi, shundan 24,6 mingtasi yoki 86,5 foizi kichik korxonalar va mikrofirmalardir. 2024 yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 93,6 foizni, jumladan, kichik biznes va mikrofirmalarda – 93,6 foizni tashkil etdi.



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (birlikda).



Soni



O'sish sur'ati

	Korxonalar va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	shundan:
			Kichik biznes subyektlari
2025	28 456	24 743	24 601
2024	29 867	26 444	26 279
2023	31 404	27 968	27 799
2022	32 943	29 507	29 359
2021	31 383	28 031	27 898

Hududlar bo'yicha eng ko'p faol korxonalar va tashkilotlar Buxoro shahrida – 27,1 foiz, G'ijduvon – 10,3 foiz, Romitan – 9,0 foiz, Jondor – 8,1 foiz va Buxoro – 7,5 foiz tumanlarda faoliyat ko'rsatmoqda.

Tadbirkorlik va kichik biznes subyektlarining umumiy sonidagi salmoqli ulushi Romitan – 90,1 foiz va 89,7 foiz, Kogon – 89,9 va 89,5 foiz, Jondor – 88,6 foiz va 88,5 foiz hamda Buxoro – 88,4 foiz va 88,1 foiz tumaniga to'g'ri keldi.

	Korxonalar va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	shundan:
			Kichik biznes subyektlari
Olot tumani	1 221	1 034	1 030
Buxoro tumani	2 134	1 887	1 881
Vobkent tumani	1 738	1 505	1 498
G'ijduvon tumani	2 927	2 548	2 528
Kogon tumani	1 547	1 391	1 384
Qorako'l tumani	1 390	1 109	1 101
Qorovulbozor tumani	630	546	535
Peshku tumani	1 551	1 314	1 309
Romitan tumani	2 556	2 303	2 292
Jondor tumani	2 292	2 030	2 029
Shofirkon tumani	1 756	1 484	1 480
Buxoro shahar	7 713	6 729	6 677
Kogon shahar	1 001	863	857

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

Korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlarning (tadbirkorlik subyektlari va kichik biznes subyektlarining) eng ko'p qismi "Savdo" tarmog'ida qolmoqda, ularning ulushi 2025- yil 1- noyabr holatiga 28,7 foizni (33,0 foiz va 33,1 foiz) tashkil etdi.



Korxonalar va tashkilotlar


Ikkinchi o'rinda "Sanoat" 11,2 % (12,9 % va 12,8 %), uchinchi o'rinda "Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi" 11,4 % (12,9 % va 13,0 %).

Birgalikda ushbu uch turdagi faoliyat ularning umumiy sonining 51,3 % dan ortig'ini tashkil qiladi.

	Korxonalar va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	Kichik biznes subyektlari
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	3 242	3 203	3 192
Sanoat	3 194	3 186	3 149
Qurilish	2 079	2 059	2 042
Savdo	8 177	8 172	8 153
Tashish va saqlash	2 435	2 433	2 426
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	2 024	2 022	2 018
Axborot va aloqa	328	312	312
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	979	736	734
Boshqa turlar	5 998	2 620	2 575

II. Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ma'lumotlar

2025-yil 1-noyabr holatiga ko'ra, 24,7 mingta faol tijorat korxonalaridan 20,1 mingtasi mas'uliyati cheklangan jamiyatlar tashkil etilgan bo'lib, ular tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha korxonalar orasida birinchi o'rinni egallab turibdi.



Tadbirkorlik subyektlari


Shundan kelib chiqib, MChJlar mamlakatimizda biznes yuritishning eng keng tarqalgan shakli degan xulosaga kelishimiz mumkin.

	Tadbirkorlik subyektlari soni (birlikda)	Tadbirkorlik subyektlarining jamiga nisbatan ulushi (foizda)
Mas'uliyati cheklangan jamiyat	20 105	81,3
Xususiy korxonalar	2 083	8,4
Oilaviy korxonalar	2 357	9,5
Aksiyadorlik jamiyati	33	0,1
Boshqalar	165	0,7

III. Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnihilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Shuningdek, chet el investitsiyalari ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan 364 ta korxonalardan 126 tasi qo'shma korxonalar va 238 tasi xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.



Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar

2025- yilning 1- noyabr holatiga ko'ra xorijiy investitsiyalar ishtirokida ro'yxatdan o'tgan korxonalarning soni, 2024-yilning mos davriga nisbatan 14 taga oshgan. Bu asosan, savdo sohasidagi korxonalar sonining 121 tadan 140 taga, (o'sish 19 taga), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish 3 tadan 5 taga (o'sish 2 taga) va boshqa turlar sohasida 29 tadan 41 taga (o'sish 12 taga) ko'payishi hisobiga yetdi.

	Jami:	shundan:	
		Qo'shma korxonalar	Xorijiy korxonalar
Jami:	364	126	238
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	21	12	9
Sanoat	103	51	52
Qurilish	20	5	15
Savdo	140	33	107
Tashish va saqlash	10	4	7
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	22	11	11
Axborot va aloqa	2		2
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	5	2	3
Boshqa turlar	41	9	32

Ayrim davlatlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

Viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar tahlil qilganda, yetakchi o'rinni 61 ta korxonalar bilan Xitoy davlati egalladi. Bu viloyatdagi xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 17,0 foizini tashkil etdi. O'zbekiston iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritib hissasini qo'shayotgan mamlakatlar orasida Rossiya Federatsiyasi (11,5%), Turkiya (12,0%), Qozog'iston (2,0%) va Janubiy Koreya (3,4%) ham alohida o'rin egallaydi.

	Jami:	shundan:	
		Qo'shma korxonalar	Xorijiy korxonalar
Jami:	351	121	230
Xitoy	62	16	46
Rossiya	42	23	19
Turkiya	42	22	20
Qozog'iston	7	2	5
Afg'oniston	19	3	16
Janubiy Koreya	12	7	5
AQSH	7	5	2
BAA	6	1	5
Germaniya	6	5	1
Tojikiston	7	1	6
Qirg'iz Respublikasi	4	2	2
Hindiston	16	2	14
Ozarbayjon	4	1	3
Buyuk Britaniya	4	2	2
Belorusiya	3	3	
Turkmaniston	79	12	67
Pokiston	4		4
Boshqa davlatlar	27	14	13

IV. Korxonalar va tashkilotlar demografiyasiga oid metama'lumotlar va tushunchalar

Registrlarni yuritish bo'yicha statistik faoliyatni amalga oshirish uchun asos bo'lib Vazirlar Mahkamasining 2022- yil 28- noyabrda "Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registrini yuritish va uning asosida davlat xizmatini ko'rsatishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 539-son qaroriga muvofiq Korxonalar va tashkilotlarning ma'lumotlari statistik tasniflagichlarga asosan shakllantiriladi..

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi. Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida 2025- yil 1- noyabr holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi..

Metama'lumot uchun havolalar:

[Metama'lumot Korxonalar va tashkilotlar soni](#)

[Glossariy](#)

[Statistik klassifikatsiyalar](#)

Mavzuga doir ko'rsatkichlar::

[Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan xususiy korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyati soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni \(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, oylik\)](#)

[Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida yangi tashkil qilingan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Sanoat yo'nalishida yangi tashkil qilingan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Qurilish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yangi tashkil qilingan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Savdo sohasida yangi tashkil qilingan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Tashish va saqlash xizmatlari sohasida yangi tashkil qilingan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida yangi tashkil qilingan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Axborot va aloqa sohasida yangi tashkil qilingan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida yangi tashkil qilingan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

Tayyorlash uchun mas'ul:
Statistik registrlarni yuritish bo'limi

Ijrochi:
N. Fuzaylova
65 223-83-20 (8060)

Maznil:
200100, Buxoro sh.,
S.Ayniy ko'chasi, 3-uy
